INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1000
<b>Ibragimov Suxrob Latifovich</b>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	1004
<b>Ismailova Nilufar Sabitdjanovna</b>	
СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМОВКИ ТРУБ СРЕДНЕГО И БОЛЬШОГО ДИАМЕТРА .....	1010
<b>Юсупов А.А., Райимкулов С.Х.</b>	
TURIZM XIZMATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDAGI RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH.....	1015
<b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</b>	
DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOIV MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
<b>Xasanov Jahongir Botir o'g'li</b>	
PAHTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
<b>Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	1030
<b>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ» .....	1036
<b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
<b>Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.....	1059
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI....	1067
<b>Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
<b>Hazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich</b>	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI .....	1077
<b>Y.M. Xalikov</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI .....	1085
<b>Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	1091
<b>Мухторов М. Н., Каримова А. М.</b>	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА .....	1098
<b>Дониерова Фотимабону Алишер қизи</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
<b>Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
<b>Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li</b>	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1124
<b>Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
<b>Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
<b>Эгамова Махфурат Эсановна</b>	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
<b>Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	1156
<b>Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna</b>	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
<b>Kodirova Samira Kamol qizi</b>	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	1169
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	1175
<b>Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI .....	1181
<b>Kazakova Zulayho, Saida'zamova Nilufar, Isroilov Shohruh</b>	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
<b>Jalolova Madina Shopo'lat qizi</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА .....	1192
<b>Шермухамедов Акмал Комилжонович</b>	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
<b>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</b>	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
<b>Umarov Xasan Sunnatullaevich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII .....	1210
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	1221
<b>Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI .....	1233
<b>Sabirov Mirza Qilichbayevich</b>	



# NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI

**Sabirov Mirza Qilichbayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
PhD, professor

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada norasmiy bandlikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishda o'zini o'zi band qilish institutining iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. O'zini o'zi band qilish mehnat bozorida aholining faol ishtirokini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish hamda norasmiy mehnat munosabatlarini qonuniy maydonga olib chiqishning muhim vositasi sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini tartibga solish, ularni soliq va ijtimoiy himoya tizimiga bosqichma-bosqich jalb etish, bandlikni rasmiylashtirish orqali budjet daromadlarini kengaytirish hamda aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zini o'zi band qilishni rivojlantirish nafaqat ishsizlik va yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytiradi, balki kichik tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi va uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** norasmiy bandlik, o'zini o'zi band qilish, aholi daromadlari, mehnat bozori, yashirin iqtisodiyot, bandlikni rasmiylashtirish, soliq ma'murchiligi, ijtimoiy himoya, kichik tadbirkorlik, daromad manbalari.

**Annotation.** This article examines the economic importance of self-employment in reducing informal employment and increasing household incomes. Self-employment is analyzed as an important mechanism for ensuring active participation of the population in the labor market, expanding sources of income, increasing socio-economic activity, and bringing informal labor relations into the legal framework. The article also scientifically substantiates issues related to regulating the activities of self-employed individuals, gradually involving them in the tax and social protection systems, expanding budget revenues through the formalization of employment, and forming stable income sources for the population. According to the research findings, the development of self-employment not only reduces unemployment and the scale of the shadow economy, but also has a positive impact on the growth of small entrepreneurship, the service sector, and household incomes.

**Keywords:** informal employment, self-employment, household incomes, labor market, shadow economy, employment formalization, tax administration, social protection, small entrepreneurship, sources of income.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается экономическое значение самозанятости в сокращении неформальной занятости и повышении доходов населения. Самозанятость анализируется как важный механизм обеспечения активного участия населения на рынке труда, расширения источников доходов, повышения социально-экономической активности, а также перевода неформальных трудовых отношений в правовое поле. Кроме того, в статье научно обоснованы вопросы регулирования деятельности самозанятых лиц, их поэтапного вовлечения в налоговую систему и систему социальной защиты, расширения доходов бюджета посредством формализации занятости, а также формирования устойчивых источников доходов населения. По результатам исследования установлено, что развитие самозанятости способствует не только снижению безработицы и масштабов теневой экономики, но и оказывает положительное влияние на рост малого предпринимательства, сферы услуг и доходов домашних хозяйств.

**Ключевые слова:** неформальная занятость, самозанятость, доходы населения, рынок труда, теневая экономика, формализация занятости, налоговое администрирование, социальная защита, малое предпринимательство, источники доходов.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehnat bozorida bandlikning moslashuvchan shakllari kengayib borayotgani, aholining mustaqil mehnat faoliyati orqali daromad olish imkoniyatlari ortayotgani hamda xizmatlar sohasida norasmiy faoliyat ulushining saqlanib qolayotgani soliq tizimi va soliq ma'murchiligi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini iqtisodiy-huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning daromadlarini aniq hisobga olish, realizatsiya jarayonlarini hujjatlashtirish va ushbu faoliyatdan shakllanadigan daromadlar orqali davlat budjeti tushumlari barqarorligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi [1].

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim manbalaridan biri sifatida nafaqat fiskal vazifani bajaradi, balki iqtisodiy faoliyat shaffofligini oshirish, soliq bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiy munosabatlarni qisqartirish va daromadlar hisobini tizimli yuritishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida xaridorlarga hisobvaraƒ-faktura rasmiylashtirish mexanizmini joriy etish ularning iqtisodiy faoliyatini hujjatlashtirish, daromadlar harakatini aniq qayd etish hamda soliq nazoratining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatining ayrim yo'nalishlarida daromadlarning to'liq rasmiylashtirilmagligi, xaridorlar bilan hisob-kitoblarning hujjatsiz amalga oshirilishi hamda elektron hisob yuritish mexanizmlaridan yetarli darajada foydalanilmagligi soliq bazasining torayishiga va mavjud fiskal salohiyatdan to'liq foydalanilmagligiga sabab bo'lmoqda. Natijada budjet daromadlarini shakllantirishda norasmiy faoliyatdan kelib chiqadigan iqtisodiy resurslar yetarli darajada qamrab olinmaydi.

Shu bois, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatida hisobvaraƒ-faktura rasmiylashtirish tartibini joriy etish va uni elektron soliq ma'murchiligi mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv, bir tomondan, realizatsiya hajmi va daromadlarni haqqoniy hisobga olishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, soliq tushumlarini oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini qonuniy va shaffof iqtisodiy muhitga integratsiya qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini soliq ma'murchiligi orqali tartibga solish va ularning daromadlarini rasmiy hisob tizimiga jalb etish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy bandlikni qisqartirish, aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirish va mehnat bozorida moslashuvchan bandlik shakllarini rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'zini o'zi band qilish instituti aholining mustaqil mehnat faoliyatini qonuniylashtirish, ularni rasmiy iqtisodiy munosabatlarga jalb etish, daromadlarini hisobga olish hamda ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishning samarali mexanizmi sifatida qaralmoqda. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi ilmiy yondashuvlar mehnat bozori, soliq tizimi, norasmiy iqtisodiyot va aholi daromadlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.


Klassik iqtisodiy nazariya vakili A. Smit mehnat taqsimoti, iqtisodiy erkinlik va shaxsiy tashabbusning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Uning qarashlarida insonning mehnat faoliyati orqali daromad topishi va iqtisodiy manfaatdorligi jamiyat boyligini oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv o'zini o'zi band qilish institutining iqtisodiy mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'zini o'zi band qilish aholining shaxsiy tashabbusi, kasbiy ko'nikmalari va mehnat salohiyatidan foydalangan holda daromad topish imkoniyatlarini kengaytiradi.

J. M. Keynsning bandlik va daromadlar nazariyasida aholining iqtisodiy faolligi, bandlik darajasi va daromadlar hajmi o'rtasidagi bog'liqlik alohida o'rin egallaydi. Keynscha yondashuvga ko'ra, bandlikni qo'llab-quvvatlash va daromadlar barqarorligini ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, o'zini o'zi band qilish aholi bandligini kengaytirish, ishsizlik bosimini kamaytirish va uy xo'jaliklari daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida baholanishi mumkin.

R. Musgrave davlat moliyasi nazariyasida davlatning fiskal, taqsimlovchi va tartibga soluvchi funksiyalarini ajratib ko'rsatgan. Uning yondashuviga ko'ra, davlat iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish orqali resurslardan samarali foydalanish, daromadlarni qayta taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini rasmiy iqtisodiy maydonga jalb etish ham mazkur funksiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, norasmiy bandlikni qisqartirish orqali mehnat bozori tartibga solinadi, aholining daromadlari hisobga olinadi va ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrov kengayadi.

V. Tanzi norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda institutsional salohiyat, axborot almashinuvi hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytirish faqat ma'muriy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish orqali emas, balki iqtisodiy subyektlar uchun qulay, sodda va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish orqali ta'minlanadi. Ushbu yondashuv o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish, daromadlarini hisobga olish va ularni rasmiy iqtisodiy munosabatlarga bosqichma-bosqich jalb etish zaruratini asoslaydi.

J. Alm soliq to'lovchilarning ixtiyoriy rioya qilish xulq-atvori, soliq intizomi va ma'muriy qulayliklar masalasiga e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida soddalashtirilgan tartiblar, raqamli xizmatlar va soliq tizimiga bo'lgan ishonch iqtisodiy subyektlarning rasmiy faoliyatga o'tishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun ortiqcha ma'muriy yukni kamaytirgan holda ularni rasmiylashtirish,



daromadlarini hisobga olish va faoliyatini qonuniy asosda tashkil etish muhimligini ko'rsatadi.

X. De Soto norasmiy iqtisodiyotning shakllanish sabablarini mulk huquqi, rasmiy ro'yxatdan o'tish tartiblarining murakkabligi va institutsional to'siqlar bilan izohlaydi. Uning fikricha, norasmiy faoliyat ko'pincha iqtisodiy subyektlarning qonundan tashqarida ishlash istagidan emas, balki rasmiy tizimga kirish xarajatlari va tartiblarining murakkabligidan kelib chiqadi. Mazkur yondashuv o'zini o'zi band qilish institutini rivojlantirishda soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish, yengil soliq tartibi va elektron xizmatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham o'zini o'zi band qilish, norasmiy bandlikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish va mehnat bozorini tartibga solish masalalari muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Xususan, aholining mustaqil mehnat faoliyatini qonuniylashtirish, xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan shaxslarni rasmiy hisobga olish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish, elektron ro'yxatdan o'tish va daromadlarni hujjatlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy qarashlar shakllangan. Ushbu yondashuvlar o'zini o'zi band qilish institutining nafaqat fiskal, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ham ochib beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil va induksiya-deduksiya usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil usuli orqali o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatining soliq tizimidagi o'rni, daromadlarni hisobga olish mexanizmi va budget daromadlarini shakllantirish jarayoni o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayon sifatida baholandi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida amaldagi soliqqa tortish tartibi va hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirish majburiyatini joriy etish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy samaralar taqqoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Budget daromadlarini barqaror shakllantirishda soliq tushumlari va ularning bazasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatidan olinadigan daromadlarni rasmiy hisobga olish hamda tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi bo'yicha hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirish mexanizmini joriy etish budget daromadlarining qo'shimcha manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, konsolidatsiyalashgan budget parametrlarining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish daromadlarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish zaruratini asoslash imkonini beradi.

### 1-jadval

#### Soliq hisobotlarini shakllantirish va elektron hujjatlashtirish mexanizmi uchun soliq to'lovchilar bazasi

Ko'rsatkichlar	2024-yil 1-iyul	2025-yil 1-iyul	Farqi
1. Asosiy soliq turlari bo'yicha to'lovchilar soni (birlik)			
Foyda solig'i	222 758	230 423	7 665
Aylanmadan olinadigan soliq*	344 212	331 934	-12 278
QQS	222 758	230 423	7 665
Aksiz solig'i	4 236	4 538	302
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1 565	1 626	61
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	156 467	159 539	3 072
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	77 733	82 563	4 830
Yuridik shaxslar yer solig'i	187 290	187 801	511
2. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni (ming nafar)			
Daromad solig'i (qat'iy belgilangan daromad solig'i to'lovchi YTT bilan birga)	6 032	6 059	27
Mol-mulk solig'i	6 812	6 932	120
Yer solig'i	5 819	5 884	65

1-jadval ma'lumotlari 2024-yil 1-iyul holatidan 2025-yil 1-iyul holatigacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilar tarkibida yuz bergan o'zgarishlarni ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda soliq bazasining kengayishi, iqtisodiy faoliyatning rasmiy hisobga olinishi hamda yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish

mexanizmlarining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, soliq to'lovchi jismoniy shaxslar sonining ortishi aholi daromadlarini rasmiylashtirish va norasmiy bandlikni qisqartirish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlil qilinayotgan davrda foyda solig'i to'lovchilari soni 222 758 tadan 230 423 taga yetib, 7 665 taga oshgan. QQS to'lovchilari sonida ham xuddi shunday o'sish kuzatilgan. Bu holat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining kengayib borayotgani, iqtisodiy aylanmalarning rasmiy hisobga olinishi hamda tadbirkorlik subyektlarining soliq tizimiga jalb etilishi kuchayayotganidan dalolat beradi. Ushbu jarayon o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini ham rasmiylashtirish zaruratini kuchaytiradi, chunki yirik va kichik biznes bilan bog'liq xizmat ko'rsatish zanjirlarida o'zini o'zi band qilgan shaxslarning ulushi ortib bormoqda.

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari soni esa 344 212 tadan 331 934 taga kamayib, farq 12 278 tani tashkil etgan. Bu holat ayrim kichik biznes subyektlarining faoliyat shakli o'zgarishi, QQS yoki foyda solig'i to'lovchilari toifasiga o'tishi, shuningdek, faol bo'lmagan subyektlarning soliq bazasidan chiqishi bilan izohlanishi mumkin. Mazkur o'zgarish kichik tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini aniq chegaralash, ularning daromadlarini rasmiy hisobga olish va soliq ma'murchiligini soddalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Aksiz solig'i to'lovchilari soni 302 taga, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari 61 taga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari esa 3 072 taga oshgan. Bu ko'rsatkichlar tabiiy resurslardan foydalanish va ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq subyektlar sonida o'sish mavjudligini bildiradi. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari sonining 4 830 taga, yer solig'i to'lovchilari sonining 511 taga oshishi esa korxonalar mulkiy bazasi va yer resurslaridan foydalanish ko'lami kengayib borayotganini anglatadi.

Jismoniy shaxslar bo'yicha ko'rsatkichlar mavzu nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Daromad solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar soni, qat'iy belgilangan daromad solig'i to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan birga, 2024-yil 1-iyulda 6 032 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-iyulga kelib 6 059 ming nafarga yetgan. Ya'ni bir yil davomida ushbu toifadagi soliq to'lovchilar soni 27 ming nafarga oshgan. Bu o'sish aholi daromadlarining rasmiy hisobga olinishi kengayayotgani, mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlar soliq tizimi orqali qamrab olinayotganini ko'rsatadi.

Mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar soni 6 812 ming nafardan 6 932 ming nafarga oshib, 120 ming nafarlik o'sishni tashkil etgan. Yer solig'i to'lovchilari soni esa 5 819 ming nafardan 5 884 ming nafarga yetib, 65 ming nafarga ko'paygan. Ushbu holat jismoniy shaxslarning mulkiy va yer resurslari bo'yicha soliq majburiyatlari qamrovi kengayib borayotganini bildiradi. Bu esa aholi iqtisodiy faolligining ortishi, mulkiy munosabatlarning rasmiylashuvi va soliq ma'murchiligi bazasining kengayishi bilan izohlanadi.

Mazkur ko'rsatkichlar o'zini o'zi band qilish institutining ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki daromad solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar sonining ko'payishi aholining mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlarini rasmiylashtirish jarayoni davom etayotganini anglatadi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish, ularning daromadlarini elektron hisobga olish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini hujjatlashtirish orqali norasmiy bandlikni qisqartirish imkoniyati kengayadi.

Xususan, 2024–2025-yillar kesimidagi soliq to'lovchilar soni dinamikasi iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektor bilan qamrovi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, jismoniy shaxslar sonidagi o'sish aholi daromadlarini soliqqa tortish bazasini kengaytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qonuniy iqtisodiy munosabatlarga jalb etish zaruratini asoslaydi. Shu jihatdan, o'zini o'zi band qilish institutini rivojlantirish aholi daromadlarini oshirish, mehnat bozorida rasmiy bandlikni kengaytirish hamda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Taklif etilayotgan mexanizmning asosiy mazmuni o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida xaridorlarga hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirish majburiyatini joriy etishdan iborat. Ushbu yondashuv har bir realizatsiya jarayonini elektron shaklda hujjatlashtirish, real aylanmalarni soliq tizimida qayd etish va daromadlar hisobini shaffoflashtirish imkonini beradi. Natijada soliq bazasi kengayadi, norasmiy iqtisodiyot ulushi qisqaradi va budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash uchun zarur axborot bazasi shakllanadi. Shuningdek, elektron ma'lumotlar asosida monitoring yuritish soliq organlariga o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini ortiqcha ma'muriy bosimsiz elektron monitoring yuritish imkonini beradi. Bu esa soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish bilan birga, soliq to'lovchilar uchun ham qulay va soddalashtirilgan hisob yuritish muhitini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Daromadlarni soliqqa tortish orqali budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish bugungi kunda soliq tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatining kengayib borishi ushbu toifadagi soliq to'lovchilar daromadlarini rasmiy hisobga olish, ularning iqtisodiy faoliyatini shaffoflashtirish va soliq bazasini kengaytirish zaruratini kuchaytirmoqda.



Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida hisobvaraƒ-faktura rasmiylashtirish majburiyatini joriy etish daromadlar hisobining aniq yuritilishiga, rasmiy hisobga olinmagan aylanmalar ulushining kamayishiga hamda budjet tushumlarining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur mexanizm orqali real aylanmalar elektron tarzda qayd etiladi, soliq organlari uchun ishonchli axborot bazasi shakllanadi va soliq ma'murchiligining raqamli nazorat imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, hisobvaraƒ-faktura rasmiylashtirish tizimini o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun soddalashtirilgan elektron shaklda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu, bir tomondan, soliq to'lovchilarga ortiqcha ma'muriy yuk yaratmasdan, ularning faoliyatini qonuniy iqtisodiy muhitga moslashtiradi, ikkinchi tomondan esa budjet daromadlarini oshirishning qo'shimcha fiskal manbalarini shakllantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatida elektron hujjatlashtirish va hisobvaraƒ-faktura rasmiylashtirish mexanizmini joriy etish daromadlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning samarali yo'nalishi sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv soliq bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirish, budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash va soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdaƒi O'RQ-599-son Qonuni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4674011>
3. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdaƒi O'RQ-360-son Qonuni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-2302187>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundaƒi PQ-4742-son "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"ƒi qarori. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4849607>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdaƒi 806-son "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidaƒi nizomni tasdiqlash haqida"ƒi qarori. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5182451>
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari va fiskal strategiyaga oid rasmiy ma'lumotlar. – Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. O'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish, daromadlarini hisobga olish va soliqqa tortish tartibiga oid rasmiy ma'lumotlar. – Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. O'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish xizmati bo'yicha rasmiy ma'lumotlar.
9. Musgrave R. A., Musgrave P. B. Public Finance in Theory and Practice. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 1989.
10. Stiglitz J. E. Economics of the Public Sector. – 3rd ed. – New York: W. W. Norton & Company, 2000.
11. Atkinson A. B., Stiglitz J. E. Lectures on Public Economics. – Updated edition. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
12. James S., Alley C. Tax Compliance, Self-Assessment and Tax Administration // Journal of Finance and Management in Public Services. – 2002. – Vol. 2, No. 2. – P. 27–42.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)